

LEV VIGOTSKIYNING MADANIY-TARIXIY KONSEPSIYASINING
NAZARIY ASOSLARI

Muradova Mexrinoz Yaxyojon qizi
murodovamehrinoz@gmail.com

MAQOLA
MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 18.09.2026

Revised: 19.09.2026

Accepted: 20.09.2026

KALIT SO'ZLAR:

*L.S. Vigotskiy,
madaniy-tarixiy
konsepsiya, madaniy-
tarixiy nazariya, psixik
rivojlanish, shaxs,
ijtimoiy muhit, ta'lim,
tarbiya, til, madaniyat,
yaqin rivojlanish
zonasi, yuqori psixik
funktsiyalar.*

*mazkur maqolada L.S. Vigotskiyning madaniy-
tarixiy konsepsiyasi, uning shakllanish asoslari va
inson psixik rivojlanishini tushuntirishdagi ilmiy-
nazariy ahamiyati tahlil qilinadi. Madaniyat, ijtimoiy
muhit, ta'lim va shaxs rivojlanishining o'zaro
bog'liqligi Vigotskiy qarashlari asosida yoritiladi.
Shuningdek, olimning psixik jarayonlarning
rivojlanishida ijtimoiy munosabatlar, til va madaniy
vositalarning tutgan o'rni haqidagi fikrlari tahliliy
jihatdan ko'rib chiqiladi. Maqolada Vigotskiyning
"yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasi, yuqori
psixik funksiyalarning shakllanishi hamda ta'limning
rivojlantiruvchi xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.
Madaniy-tarixiy yondashuvning zamonaviy
pedagogika va psixologiya fanlari uchun nazariy va
amaliy ahamiyati ham ochib beriladi*

Hozirgi tilshunoslikda tilga statik tizim sifatida emas, balki dinamik, doimiy harakatda bo'lgan faoliyat sifatida yondashiladi. Bu yondashuv tilni faqat qoidalar majmui emas, balki insonning fikrlash va muloqot jarayonidagi faol vosita sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Til va nutq tushunchalarini farqlash masalasi tilshunoslikda muhim o'rin tutadi. Bu farqlash ilmiy asosda birinchi marta Ferdinand de Sossyur tomonidan aniq tizimlashtirilgan bo'lib, u tilni ijtimoiy tizim, nutqni esa individual amalga oshirish sifatida talqin qilgan. Bu yondashuv tilshunoslikda yangi metodologik yo'nalishlarning shakllanishiga sabab bo'ldi.

Keyingi bosqichlarda bu nazariya L. V. Shcherba tomonidan rivojlantirilib, til hodisasi uch tarkibiy qismga bo'lingan: nutqiy faoliyat, til tizimi va til materiali. Bu tasnif tilni yanada chuqurroq o'rganish imkonini berdi.

A. A. Leontyev esa tilni psixologik nuqtai nazardan tahlil qilib, "til qobiliyati", "til jarayoni" va "til standarti" tushunchalarini ilmiy muomalaga kiritdi. Bu esa tilning inson ongida qanday shakllanishini tushuntirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Nutqiy faoliyat insonning eng muhim kommunikativ faoliyat turlaridan biri bo'lib, u to'rt asosiy shaklda namoyon bo'ladi: so'zlash, tinglash, o'qish va yozish. Ushbu jarayonlar o'zaro bog'liq holda insonning til tizimini to'liq amalga oshirishini ta'minlaydi.

=====

L. S. Vigotskiy (1896–1934) rus psixologiyasi va falsafasining eng yirik namoyandalaridan biri sifatida eʼtirof etiladi. Uning ilmiy qarashlari psixologiya fanining rivojlanishiga kuchli turtki bergan boʻlib, ayniqsa bolalar psixik taraqqiyotini tushuntirishda tub burilish yasagan. Olimning ilmiy merosida markaziy oʻrinni egallovchi gʻoyalardan biri — oliy psixik funksiyalarning shakllanishi haqidagi konsepsiyadir.

Vigotskiy nazariyasiga koʻra, insonning ixtiyoriy xotira, diqqat, tafakkur va irodaviy harakatlari bevosita biologik omillar bilan emas, balki ijtimoiy-madaniy muhit bilan belgilanadi. Yaʼni bu funksiyalarni faqat miya fiziologiyasi orqali tushuntirish yetarli emas, ularning ildizlari insonni oʻrab turgan ijtimoiy muhitda yotadi. Shu bois, psixik rivojlanishni tushunish uchun individning jamiyat bilan munosabati markaziy oʻrinda turadi.

Ijtimoiy muhit va psixik taraqqiyot. Vigotskiy ilmiy qarashlarida ijtimoiy muhit psixik rivojlanishning asosiy manbai sifatida talqin etiladi. Muhitning roli statik emas, balki dinamik xarakterga ega boʻlib, u bola yoshiga qarab oʻzgarib boradi. Shu sababli muhitni mutlaq emas, balki nisbiy tushuncha sifatida baholash lozim.

Olimning fikricha, insonda tugʻma xulq-atvorning toʻliq shakllari mavjud emas. Barcha psixik funksiyalar ijtimoiy tajriba, faoliyat va muloqot jarayonida shakllanadi. Bola jamiyatda mavjud boʻlgan tarixiy shakllangan faoliyat turlarini oʻzlashtirish orqali rivojlanadi. Bu jarayonda muloqot va hamkorlik asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Miyaning biologik imkoniyatlari faqat shart-sharoit yaratadi, ammo psixik taraqqiyotning mazmunini belgilamaydi. Haqiqiy rivojlanish esa ijtimoiy tajribaning oʻzlashtirilishi orqali amalga oshadi.

Madaniy-tarixiy konsepsiyaning mazmuni. Vigotskiy tomonidan ishlab chiqilgan madaniy-tarixiy konsepsiya XX asr psixologiyasida eng muhim nazariy yondashuvlardan biri hisoblanadi. Ushbu konsepsiyaning asosiy gʻoyasi shundan iboratki, inson psixikasi tabiiy emas, balki tarixiy va madaniy rivojlanish mahsulidir.

Odam tabiat bilan munosabatga kirishar ekan, mehnat qurollari yordamida uni oʻzgartiradi. Xuddi shunga oʻxshash tarzda, u oʻz psixikasiga ham “psixologik qurollar” orqali taʼsir koʻrsatadi. Bu psixologik qurollar asosan belgilar tizimidan iborat boʻlib, ular orqali inson oʻz fikrini boshqaradi va tartibga soladi.

Belgilar tizimi insonning oliy psixik funksiyalarini shakllantiruvchi asosiy vosita hisoblanadi. Ixtiyoriy diqqat, mantiqiy tafakkur, ixtiyoriy xotira va irodaviy harakatlar aynan shu belgilar vositasida rivojlanadi. Vigotskiy bu funksiyalarni “tuban” (natural) va “oliy” (madaniy) shakllarga ajratadi.

Tuban funksiyalar biologik asosga ega boʻlsa, oliy psixik funksiyalar ijtimoiy kelib chiqishga ega boʻlib, ular inson tomonidan ongli ravishda boshqariladi.

Interiorizatsiya jarayoni. Madaniy-tarixiy konsepsiyaning eng muhim tushunchalaridan biri interiorizatsiya jarayonidir. Bu jarayon tashqi ijtimoiy faoliyatning asta-sekin ichki psixik jarayonga aylanishini ifodalaydi.

=====

Dastlab bola kattalar bilan muloqotda belgilar tizimidan foydalanadi. Keyinchalik u ushbu belgilarni mustaqil ravishda qo'llay boshlaydi va ular ichki nutq shakliga aylanadi. Shu tariqa interpsixologik jarayonlar intrapsixologik jarayonlarga o'tadi. Masalan, bola biror harakatni bajarishda avval kattalarning ko'rsatmalariga tayanadi, keyinchalik esa bu ko'rsatmalar ichki nutqqa aylanib, mustaqil boshqaruv vositasiga aylanadi.

Rivojlanishning eng yaqin zonasi nazariyasi. Vigotskiy tomonidan ilgari surilgan eng muhim g'oyalardan yana biri rivojlanishning eng yaqin zonasi (REYaZ) tushunchasidir. Bu tushuncha bolaning mavjud rivojlanish darajasi bilan uning kattalar yordamida erishishi mumkin bo'lgan potentsial darajasi o'rtasidagi farqni ifodalaydi.

Bolaning aktual rivojlanish darajasi uning mustaqil bajara oladigan vazifalari bilan belgilanadi. Eng yaqin zona esa kattalar yordamida hal qilinadigan, ammo hali mustaqil bajarilmagan vazifalarni o'z ichiga oladi.

Bu yondashuv ta'lim jarayonining ahamiyatini yanada kuchaytiradi. Vigotskiy fikricha, ta'lim rivojlanishdan oldinda borishi va uni rag'batlantirishi kerak. Agar ta'lim to'g'ri tashkil etilsa, u bolaning psixik taraqqiyotini tezlashtiradi.

Bola psixik taraqqiyotining qonunlari. Vigotskiy bolalar psixik rivojlanishini tushuntiruvchi bir qator muhim qonuniyatlarni ham aniqlagan:

Rivojlanish ritmlarining farqlanishi – bola rivojlanishi kattalarnikidan tezlik va ritm jihatdan farq qiladi.

Metamorfoza qonuni – bola psixikasi sifat jihatdan kattalarnikidan tubdan farq qiladi, u faqat miqdoriy emas, balki sifat o'zgarishlarga ham ega.

Notekis rivojlanish qonuni – psixik funksiyalar bir xil tezlikda rivojlanmaydi, har biri o'ziga xos davrga ega.

Oliy psixik funksiyalarning shakllanish qonuni – har qanday psixik funksiya avval ijtimoiy shaklda paydo bo'lib, keyinchalik individual shaklga o'tadi.

Inqiroz davrlari va rivojlanish. Bola psixik rivojlanishida barqaror davrlar bilan birga inqiroz davrlari ham mavjud. Bu davrlar ikki yosh bosqichi o'rtasida yuzaga kelib, eski psixik tuzilmalar yemirilib, yangi shakllar paydo bo'lishi bilan xarakterlanadi. Inqirozlar rivojlanishning tabiiy bosqichi bo'lib, ular psixik o'sish jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, L.S. Vigotskiyning madaniy-tarixiy konsepsiyasi inson psixik rivojlanishining ijtimoiy va madaniy omillar bilan uzviy bog'liqligini asoslaydi. Olim ta'lim, tarbiya, til va muloqotning shaxs rivojlanishidagi muhim o'rnini ta'kidlaydi. Ayniqsa, "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi bolaning imkoniyatlarini rivojlantirishda ta'limning ahamiyatini ochib beradi. Shu jihatdan, Vigotskiy qarashlari zamonaviy pedagogika va psixologiya uchun muhim nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Жинкин Н.И. Механизмы речи. –М.: Наука, 1972. –200 с.
2. Хайдаров А. Ўзбек тилида мулоқот нутқи: психолингвистик ёндашув. –Т.: Фан, 2017. –152 б.
3. Хотамов Н. Инсон ва нутқ: психолингвистик қарашлар. –Т.: Ўқитувчи, 2002. –130 б.
4. Турсунов У. Ўзбек тилида мулоқот маданияти ва этик меъёрлар. –Т.: Истиқбол, 2020. –110 б.